

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Ibrohim Darvishov

(*Namangan, O'zbekiston*)
ibmofifar@bk.ru

**Shevalar – etnoslararo til munosabatlarining
tarixiy dalili**
(Janubi-g'arbiy Namangan shevalari asosida)

Abstrakt

Sharqda XI asrda Mahmud Qoshg'ariy boshlab bergan tilni areal-tipologik va areal-lingvistik metodlar orqali o'rganish, har qanday lingvistik nazariya va konsepsiyalarning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan shevalarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunda ham muhim masalalardan hisoblanadi. G'arb tilshunosligida XIX asrdan areal lingvistikaning paydo bo'lishi dialektologiya sohasidagi masala va tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga keng yo'l ochdi. Til sistemasini yaxlit o'rganishda dialekt va sheva areallarini nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Maqolada janubi-g'arbiy Namangan shevalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning tarixiy genezisi, tarqalishi va amal qilish areali masalalari haqida fikr yuritiladi. Shevadagi lisoniy belgi-xususiyat va qonuniyatlarining voqelanish jarayonlari qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: etnoslar aro tarixiy jarayonlar, mahalliy til, etnik til faktlari, lahja, qipchoq va qarluq lahjasi, sheva, fonetik, leksik va grammatik tarkibning tarixiy o'zgarishi.

Muallif haqida: *Darvishov Ibrohim O'rinovich* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Namangan davlat universiteti.

Iqtibos uchun: Darvishov, I. O'. 2019. "Shevalar – etnoslararo til munosabatlarining tarixiy dalili (Janubi-g'arbiy Namangan shevalari asosida)". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 51—65.

Kirish

O'zbekistonda fan va madaniyatning taraqqiyoti adabiy til mavqeini kundan kunga oshirmoqda. Buning natijasida mahalliy til

– shevalarning fonetik, leksik va grammatik tarkibida o'zgarishlar, torayishlar sodir bo'lmoqda. Shuning uchun dialekt va shevalarga xos fonetik-fonologik xususiyatlarni qayd qilish, barcha lingvistik tomonlarini chuqur tavsifiy-qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, mental tamoyillar asosida atroflicha o'rganish, tadqiq qilish hozirgi zamon o'zbek tili taraqqiyotini va shu til egasi bo'lgan xalqlar tarixi, tili etnografiyasini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi.

Shevalarni o'rganish tilshunoslarga til yuragining qanday urishini o'z quloqlari bilan eshitishga imkon beradi (G. Ostgov, K. Brutman). Bu fikrni bildirgan olimlar juda ham haqlidirlar. Chunki shevashunos bevosita xalq orasida yurib, u bilan birga nafas olib, o'z imkoniyati, iqtidori va kuch-qudratini ishga solib,... xalq og'zidan shevaga xos so'zlarni yozib olib, unga sayqal berib, kelgusi avlodga qoldirishga harakat qiladi [Бердиалиев, Мадвалиев, Раҳмонқулов 2017, 112].

O'zbek adabiy tili taraqqiyotida ichki omil sifatida belgilangan hamda uning takomilida alohida o'rin tutuvchi o'zbek shevalarining lisoniy xususiyatlarini ilmiy o'rganish har qanday me'yorlashgan adabiy tilning barcha sathlaridagi nazariy va amaliy qonuniyatlarini to'laqonli aniqlash, ular haqidagi mukammal va aniq qoida, ta'rif, xulosalar chiqarishda asosiy va muhim vazifalarni bajaradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida muhim rol o'ynagan o'zbek shevalari sistemasida janubi-g'arbiy Namangan shevalarining tutgan o'rnini lisoniy jarayonlar orqali belgilash hamda ular orqali asosli xulosa va to'xtamlarga kelish mumkin.

Janubi-g'arbiy Namangan (JG'N) hududidagi tub aholi sheva belgilariga ko'ra hozirgi o'zbeklarning qadimgi ikki yirik etnik guruhi qarluq va qipchoq lahjasiga mansub. Bundan tashqari, bu dialektal arealda tojik, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar kabi millatlarga mansub aholi vakillari ham istiqomat qiladi.

Darhaqiqat, har qanday etnik va etnomadaniy aloqalar, avvalo, tilda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham muayyan etnosning tilida yuz berayotgan o'zgarishlar etnolingvistik jarayonlar sifatida talqin qilinadi. Zero, etnolingvistik jarayonlar tillararo munosabatlar, aloqalar va turli mustaqil tillarni o'zaro bir-biriga ta'sir etishi kabi jihatlarni ham qamrab oladi. Janubi-g'arbiy Namangan shevalarining etnogenezisidagi ana shu jarayon turli qardosh va noqardosh til vakillarining bir-birlari bilan qadimdan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganliklarining tarixiy, amaliy natijasidir.

JG'N hududida yashovchi aholi tarixini qadimgi Munchoqtepa (Pop tumani), Axsikent (To'raqo'rg'on tumani) madaniyati tarixidan

ajratib qarash aslo mumkin emas. Fargʻona vodiysi qadim-qadimdan madaniyat markazlaridan, barcha sohalarda tsivilizatsiya oʻchoqlaridan boʻlganligi tarixiy manba va ilmiy asoslangan fikrlardan maʼlum [КошҒарий 1960-1963, 244; 1967, 388; Гумилев 2007; Асқаров 2015, 367; Шониёзов 2001, 1962 48; Абдуллаев 2005; Иногамов 1955].

Janubi-gʻarbiy Namangan shevalari guruhi Namangan viloyatining Namangan, Toʻraqoʻrgʻon, Mingbuloq, Pop tumanlari tarkibida joylashgan yirik va kichik 140 ga yaqin shaharcha va qishloqlarni [Maʼlumotnoma 2018, №01/2-01-08] oʻz ichiga oladi.

JGʻN hududi maydon jihatdan viloyatning eng katta qismidir. Dialektal arealdagi Namangan va Toʻraqoʻrgʻon tumanlari tarkibidagi qishloqlarda aholining zichlik darajasi ancha yuqori boʻlsa, Mingbuloq va Pop tumani arealidagi mavjud qishloqlarda aholining zichlik koʻrsatkichi viloyatning boshqa tumanlariga nisbatan ancha past.

Janubi-gʻarbiy Namangan dialektal areali

Shimol tomondan Toʻraqoʻrgʻon tumanidagi Shimoliy Fargʻona kanaligacha, gʻarbdan Fargʻona viloyati Buvayda tumani va Pop tumani, sharqdan Namangan shahri, janub tomondan Andijon viloyatining Ulugʻnor va Qoraqalpoq choʻllari (Markaziy Fargʻona choʻllari), janubi-gʻarbiy tomondan Fargʻona viloyatining Buvayda tumanigacha boʻlgan oraliqda joylashgan maydonlar Namangan viloyatining janubi-gʻarbiy qismini tashkil etadi. Oʻz navbatida bu hudud janubi-gʻarbiy Namangan dialektal areali hisoblanadi.

Oʻzbek millati oʻz etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Bu hol oʻzbek tilining koʻp shevali til boʻlishiga ham asos boʻlgan [Эргашев 2012, 3; Марқаев 2008, 13].

Hududda qadimdan turkiy urugʻlardan qoraqalpoq, urganji, elatan, oʻlmas, katta oʻlmas, qiyot, qurama, saroy, qatagʻon, olchin, qorayontoq, madyor (monjor), momoxon, nayman, qozoq, beshserka (Mingbuloq t.), beshsari (Pop t.), kenagas, toʻda, qirchin, uygʻur, kerayit kabilarning istiqomat qilgani qishloq nomlarida, yaʼni etnotoponimlardan ham yaqqol koʻrinib turadi.

Muayyan bir hududda kechayotgan etnoslararo til munosabatlarining rivojlanish darajasi va koʻlami koʻp jihatdan mazkur hudud aholisining etnik tarkibiga bogʻliq boʻladi. Maʼlumki, turli etnik jamoalar orasidagi oʻzaro etnik munosabatlar etnoslarning aralash yoki yonma-yon yashaydigan hududlarida qizgʻin kechadi

[Абдуллаев 2005, 47].

Janubi-g'arbiy Namangan shevalari areali ham qadimdan aynan shunday etnomuloqot hududi hisoblanadi. Qadimdan JG'N hududi aholisining asosiy qismini o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlar tashkil qilgan. Bundan tashqari, ushbu dialektal arealda tarixning turli bosqichlarida ko'chib kelib, o'rnashib qolgan ko'plab turli etnos vakillarining [Абдуллаев 2005, 20-40] avlodlari ham istiqomat qiladilar.

Tilshunos olim Xudoyberdi Donyorov haqli ta'kidlanganidek: "o'zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini qipchoq – o'zbeklar tashkil etadi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy xronologik nuqtayi nazardan o'zbek millatining tarkibiga eng keyin qo'shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a'zolarining yagona va umumiy nomi bo'lib qolgan "o'zbek" nomini ham shu komponent olib kelgan" [Донёров 1968, 8-9; Абдиев 2017, 115].

Sirdaryoning o'rta oqimida yashab turgan qoraqalpoqlarning katta bir guruhi XVIII asrda Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tganligi xususida ilmiy manbalarda qaydlar mavjud. Ko'chib o'tgan qoraqalpoqlarning aksariyati vodiyning Sirdaryo va Qoradaryo qirg'oqlaridagi hududlariga joylashgan va Andijondan to Qo'qongacha bo'lgan hududlarda o'troqlasha borib, o'zlarining qator qishloqlarini barpo etgan [Иногамов, 1955, 78; Толстова 1959, 27-35-44; Абдуллаев 2005, 40-60].

Tarixchi olim S.Gubayeva ham Farg'ona vodiysida joylashgan bir necha qoraqalpoq qishloqlarini ko'rsatib o'tadi. Xususan, Andijon viloyatida: Darlomon, Nayman, Qipchoq, Sohovat, Sherqo'rg'on, Do'ngsaroy, Xo'jaobod, Xavos, Bug'azi (Bobog'ozi); Namangan viloyatida: Gurteva, (Gurtepa), Beshkapa, Chordara, (Chordona), Qoraqalpoq; Farg'ona viloyatida: Taqali, Qipchoq, Soybo'yi, Qoraqalpoq, Qipchoq va boshqalar. Garchi, vodiylar qoraqalpoqlari Xorazm vohasida yashovchi qoraqalpoqlar kabi murakkab urug'-qabilaviy tuzilishga ega bo'lmasalar-da, har holda tadqiqotchilar vodiylar hududidagi qoraqalpoqlar ham bir necha urug'lardan iborat ekanliklarini qayd etganlar. Xususan, Farg'ona qoraqalpoqlarini maxsus o'rgangan L.S.Tolstova vodiylarida mang'it, keneges, qipchoq, qo'ng'iroq kabi qoraqalpoq urug'lari yashaganliklari, ular o'z o'rnida bir qancha mayda qavmlarga bo'linganliklarini ta'kidlaydi [Толстова 1959, 27-35]. Masalan, olim ta'kidlagan, shuyit, xitoy-qipchoq, momoxon, bessari, uyruchi, nayman, keneges, urug'larining vakillari hozirda ham JG'N hududida istiqomat qilib kelmoqda. Ularning qishloqlari ham o'z urug'lari nomi bilan ataladi.

Tarixchi olim U. Abdullayev 1909-yilda nashr etilgan “Farg‘ona viloyati aholi joylari ro‘yxati”dachuit (shuyit), uyurchi, ...kenegez, nayman... kabi qoraqalpoq urug‘larining nomi bilan ataluvchi aholi manzilgohlari ko‘rsatib o‘tilganligini ta’kidlaydi [Абдуллаев 2005, 67].

Til etnosni belgilab turuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Kishilarning asosiy aloqa vositasi sifatida ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni belgilovchi, ularni yuzaga chiqaruvchi hamda ana shu munosabatlar orqali rivojlanuvchi ijtimoiy tabiatga ega hodisadir.

Janubi-g‘arbiy Namangan hududida ham qadimdan yashab kelgan turli etnoslarga mansub xalqlar haqidagi ma’lumotlardan dialektal arealning har bir guruh shoxobchalarida ana shu etnik guruhlarning til unsurlari, etnografik belgilari ko‘zga tashlanadi [Асқаров 1997; Шониёзов 1990, 5; 2001, 92; Ишандадаев 1967, 19; Спришевский 1963, 21].

Shuni takrorlashga to‘g‘ri keladiki, mazkur xalqlar, bir guruh sho‘ro tarixchilari ta’kidlaganidek, faqat eron tillarida so‘zlashuvchi xalqlardangina iborat bo‘lmay, ularning katta bir guruhi turkiy tilning turli lahjalarida gaplashganlar. Aniqroq qilib aytganda, bu hududlarda antik va ilk o‘rta asrlarda turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar ham yashab [Абдуллаев 2005, 264-285], ular mintaqada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, jumladan, etnolingvistik jarayonlarda faol ishtirok etganlar.

Janubi-g‘arbiy Namangan arealida ham etnoslararo til munosabatlari qadim davrlardanoq boshlangan va bu jarayon asosi quyidagi ikki yo‘nalishda rivojlanib borgan: birinchi yo‘nalishda tillararo qorishuv (metizatsiya) turkiy tilning turli lahjalarida so‘zlashuvchi urug‘ va qabilalar ichida yuz bergan bo‘lsa, ikkinchisida esa turkiy tilli xalqlar bilan turkiy bo‘lmagan etnoslarning tillari o‘rtasida chatishuv (gibridizatsiya) sodir bo‘lgan.

Tarixdan ayonki, miloddan oldingi III asrda Sirdaryoning o‘rta oqimida Qang‘ (Qanxa) davlati tashkil topgan edi. Bu davlat tarixda Kanguy nomi bilan ham ma’lum. Tadqiqotchilar ushbu davlat aholisini etnik jihatdan bir xil bo‘lmaganligi, davlat hududida eron tilli xalqlar (xususan, so‘g‘diylar, assianlar, aslar) bilan birga turkiy tilda so‘zlashuvchi etnoslar ham yashaganliklarini aytib o‘tadilar [Гумилев 2007; Асқаров 2015, 678; Шониёзов 1990, 178; 2001, 114; Абдуллаев 2005, 183-200]. Yangi era arafasida ushbu davlat aholisi ikki tilda (eron va turkiy tillarda) so‘zlashganlar. Keyinroq ushbu hududga ko‘plab turkiy tilli etnoslarning ko‘chib kelishi natijasida,

bu yerda turkiy etnik qatlamning mavqei ortib borgan, oqibatda aholining turkiylashishi kuchaygan.

Turkiy va turkiy bo'lmagan etnoslar orasidagi til aloqalari ilk o'rta asrlarda ham kengayib bordi. Bu davrda mintaqaning bir qator hududlarida aholi turkiy va so'g'd tillarida so'zlagan. Chunonchi, Mahmud Koshg'ariy XI asrda Sharqiy Turkistonning janubidagi shaharlarda shuningdek, Chu va Talas vodiysidagi aholi turk va so'g'd tillarida gaplashganliklari, aholi ikki tilli bo'lganlari haqida xabar beradi. X-XI asrlarda Sharqiy Turkistondagi Balasog'un shahrida bir vaqtning o'zida aholi ham turkcha, ham so'g'dcha so'zlashganlar. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Turkiy tillar devoni" asarida Balasog'undagi so'g'diylar haqida gapirib, "Buxoro va Samarqanddan ko'chib borgan so'g'doqlar Bolasog'unda joylashib qolgan va turkiylashib ketgan" deb yozgan edi [Кoшг'арий 1960-1963, 486].

Turli millatlarning birikuvidan tarkib tongan JG'N aholisi uchun azaldan ikki tillik xos bo'lgan. XIX-XX asr boshlarida vodiy hududida o'zbek-tojik, o'zbek-uyg'ur, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-qoraqalpoq ikki tillik holatlari kuzatiladi. Natijada yuqoridagi ikki tillik hodisasi va ularning tarqalish ko'lami hududda turlicha bo'lib, bu ijtimoiy hodisaning sodir bo'lishi etnik muhit bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Namangan shevalarining fonetik-leksik xususiyatlari

Janubi-g'arbiy Namangan shevalari o'zbek shevalarining kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Sheva vakillari bir hududda yashashlariga qaramasdan, har bir shoxobcha o'ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarga ega. Sheva areali umumo'zbek shevalarining fonetik, leksik, grammatik strukturasiidagi umumiy o'xshashliklarga mos ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, ulardan ayrim quyidagi fonetik-leksik xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) qipchoq lahjasiga mansub shevalar guruhida: a) "y"lovchilar: [yʏr] yur, [yʏlɔn] ilon, [yʏp] ip, [yʏmɔlɔ] dumalamoq, [shəyɔdɔ] shu erda va b.; b) "j" lovchilar: [jʏr] yur, [jəɔ//jenga] yanga, [shjʏtʏp] shunday qilib, [jʏpkettʏi//jʏgʏbkettʏ] chiqib ketdi va b.;

2) qarluq lahjasiga mansub shevalar guruhida: [man] men, [ninɔzʏn] yaxshi, tuzuk, [sɔrpə//sərpə] sarpo, sep, [a:shʏ] ana shu, [shedɔ] shu erda, [yaɔɔ] yanga, [mabyʏ//mabʏ] mana bu va b.;

3) aralash shevalarda so'zlashuvchilar guruhida: [mɛɔɔ//mɔɔ] menga, [ninɔzʏn//bir chiroyli] yaxshi, tuzuk, [bo'g'cha//bɔxcha//tʏyʏn] ayollar narsa soladigan tugun, [sarʏmsɔq//sɔmsɔq] sarimsoqpiyoz va boshqa bir qancha shu kabi ko'rinishlar bilan

farqlanishini kuzatishimiz mumkin.

Shevalarining fonetik-fonologik tabiati soʻzlarda, grammatik shakllarda jilolanadi. Muayyan sheva arealning boshqa shevalardan farqlaydigan lisoniy qirralari uning leksik qatlamida koʻproq koʻzga tashlanadi. Janubi-gʻarbiy Namangan shevalari soʻz – terminlari va ular anglatgan maʼnolar turfa, rang-barang. Lekin ularning barchasi hali mukammalroq toʻplanib, oʻrganilgani yoʻq. Shuni nazarda tutib, JGʻN shevalari leksik qatlamini fonetik-fonologik strukturasiidagi belgilarga koʻra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Faqat shevaga xos soʻz va terminlar [*Adabiy tilda uchramaydigan, sheva tarkibida qoʻllanuvchi ayrim ijtimoiy-maishiy sohalarga, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilikka oid leksik birliklarni termin deb qoʻlladik*], qoʻshma soʻz va birikmalar.

2. Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevaga xos soʻz – terminlar:

[*shʻydə*] – qattiq tanali, masalan, makkajoʻxori, gʻoʻza, oq joʻxori kabi oʻsimliklar oʻrib olingandan soʻng ildizi bilan er ustida qolgan poyasi.

Shevada [*chəkətmək*] va [*тырчək*] soʻzlari oʻzaro maʼnodosh. [*shʻydə*] hech qachon yumshoq poyali oʻsimliklarga nisbatan qoʻllanmaydi. Biroq janubiy Qozogʻiston oʻzbek shevalarida [*shʻydə*] tikanli butoq maʼnosida qoʻllanadi [Муҳаммаджонов 1981, 177]. [*chəkətmək*] va [*тырчək*] – yumshoq poyali oʻsimliklar (sholi, arpa, bugʻdoy, kurmak, ajiriq kabi) oʻrib olingandan soʻng ildizi bilan er ustida qolgan poyasi. [*shʻydə*] [*chəkətmək*] va [*тырчək*] soʻzlaridan anglatgan maʼnosiga koʻra farqlanib, ularga sinonim boʻla olmaydi.

[*chəkətmək*] shevada omonim soʻzdir: a) yaroqsiz holga kelgan supurgi; b) baliq tutish qarmogʻi ipiga (ilmogʻidan 3-5 sm yuqoriga) oʻrnatiladigan metall parchasi; [*bəchkʻ*] ertapishar ekinlardan soʻng boʻshagan maydonlarga hayvonlar uchun ozuqa sifatida sepib oʻstirilib, kech kuzgacha oʻrib olinadigan ekin nomi; [*γvyz*] – sigir yangi tugʻgandan keyin ikki, uch kungacha sogʻib olinib toʻkib yuboriladigan sut. Bu soʻz Oʻzbekistonning barcha dialektal arealida, hatto Qozogʻiston Respublikasining oʻzbek shevalarida ham mavjud: [*γvyz*] (Gurlan, Yangibozor), [*ovyz*] (Xazorasp), [*γvʻz*] (Qovchin va Turkiston qipchoq shevalari), [*əgʻəzləq*] (Qashqadaryo), [*ogʻiz*] (Toshkent [Ishaev 1990, 12]) kabi; [*vəssə*] – imoratning uy toʻsinlari orasiga tashlanadigan taxta; [*həvən*] – sinchli uylarning ichki ustunlariga nisbatan diognal tarzda oʻrnatiladigan uzun yogʻoch; [*chərqy*] – chinni va sopoldan ishlangan sayoz quyuq taomlar idishi; [*dəltə//toʻlto*]– qaymoq qizdirilganda soʻng hosil

bo'lgan saryog' quyqasi; [tʏpkə] – ovloq joy, [jʏkʏm] – arazlashish; [ɔgʷl] – molxona, [chʏpɔɲ] – ko'p, mo'l; [qo'gʷ//qəgʷa] (ko'l va zovur ariqlarda o'sadigan ko'p yillik o'simlik, janubi-g'arbiy Namangan aholisi undan turli narsalarni bog' holatiga keltirish uchun bog'lik sifatida foydalanadi. (Namangan shahar, Chortoq, Uychi kabi qarluq lahjalarida [lugʷ//luq] deb nomlanadi); [sətʷl] – sirlangan, ikki tomonida ushlaydigan qulog'i bor metall idish, (rus: kostryul); [so'pʏltyryq] – yosh o'g'il bolalar do'ppisining o'rtasiga mayin yungli quyon yoki tulki terisidan bir parchasini tikib qo'yish; [so'ppʏ] bosh kiyim – shapkalarining tepa markaziga dumaloq holda o'rnatiladigan momiq iplar yig'indisi kabi.

2. Nomemasi adabiy tildagi so'zlardan farq qilmasa-da, lekin shevada boshqa ma'no anglatuvchi so'zlar: [tʏr'nkə] – metaldan ishlangan suyuq va quyuq ovqatlar uchun chuqur va sayoz idish turi; [chʏnʏ] – chinni kosa; [o'ra//o'rɔ]– qishda sabzavot saqlovchi joy; [məllə] – paxta terish etagi, [qulɔq] – bir ariqdan ikkinchi bir ariqqa suv olinadigan joy; [sʏpɔ] – ariqdan suv olinadigan zinali joy; [vəh-vək] – omonim: hovliqma odam, hasharot turi.

II. Fonetik qonuniyatlar asosida yuzaga kelgan leksik birliklar.

1. Qo'shma fe'l yoki etakchi fe'l+ko'makchi fe'l tipidagi fe'l qo'shilmalarining yagona urg'u olib, sandhi (sandhi [Bunda ikki so'zning talaffuzi jarayonida oldingi so'z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so'z) tovushga moslashadi yoki dastlabki so'zning oxirgi tovushi (keyingi so'z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: bəlakɔdɔm//bəlagɔdɔm (ad.: boshqa (o'zga) odam) kabi.]) holatida bo'g'in yoki tovush tushishi natijasida bir so'z holiga kelib qolishi: "y"lovchilarda: [əpɕʏq]; "j"lovchilarda: [a:chʏq] olib chiq; "y"lovchilarda: [ɔbɔr]; "j"lovchilarda: [əppər] olib bor; "y"lovchilarda: [əpket]; "j"lovchilarda: [əkɕt] olib ket; [chvər // ho'plvər] ichib yubor; [təshləvər//ɔtvər//'rg'ɕt//'rg'ɕtvər] tashlab yubor, otib yubor; [səvər] solib yubor; [ɔvər] olib yubor kabi.

2. Adabiy tildagi shakliga nisbatan kuchli fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar: [y':nə] igna; [yovʏn] omonim: yog'in, yopinmoq; [yɔvʏn-chəchʏn] yog'in-sochin, yog'ingarchilik; [mɛmɔɕɔɔ] mehmonxona; y"lovchilarda: [shʏnɔp]; "j"lovchilarda: [shʏtyɔp] shunday qilib; [ɔhlɔ] xatlamoq//sakrab o'tmoq; [hʏshshə] shisha; [təvɔp] tabib; [o'hɔt] o'tlatmoq; [qɔhnɔ] qatnamoq; [qahləmə] qatlama (qozonda yog' bilan yoki yog'siz pishiriladigan non turi); [pɔlɕʏ] folbin; [pɔqɔs//təlkə] faqat//ruscha: tolko kabi.

III. O'ziga xos morfemik strukturaga ega bo'lgan so'zlar.

1. Janubi-g'arbiy Namangan qipchoq shevalari uchungina xos

bo'lgan affikslarga ega lug'aviy birliklar:

-*(v)vg'ich// -vg'ich*: affiksi shevada ikki xil funksiyada qo'llanadi:

a) [*kyy+vg'ich*] kuykanak//kuyinchak, [*sol+vg'ich*] kurakcha, biror narsa soladigan idish, [*byr+vg'ich*] (murovat), [*tyz+vg'ich*] tuzovchi, tuzatuvchi – usta, [*səvəv+g'ch//səvəch'p*] savag'ich kabi so'zlarda so'z yasovchi;

b) [*bor+vg'ich*] boradigan; [*ol+vg'ich*] oladigan, [*shl+vg'ich*] ishlaydigan kabi so'zlarda lug'aviy shakl hosil qiluvchi ko'makchi morfema.

-*mə// -mā* affiksi: a) [*yir+mə//jir+mō*] yoriq, [*yərə+mā*] yaroqli, [*qət+yir+mə*] qotirma – taom nomi, [*sol+mə*] ariqqa suv dimlash uchun qo'yiladigan to'g'oncha kabi so'zlarda so'z yasovchi; b) [*sənə+mə*] sinalgan, [*tyzə+mā*] tuzatilgan, [*shshiq+mə*] shoshilgan, sabrsiz kishi kabi so'zlarda sifatdoshlarning lug'aviy shaklini hosil qiluvchi ko'makchi morfemadir.

-*chə// -nə* affiksi: a) [*bə:nə//bəg'ənə*] boya, hali, avvalroq kabi so'zlarda so'z yasovchi; b) [*j'ch+chə//əz+nə*] picha, ozgina kabi so'zlarda lug'aviy shakl hosil qiluvchi ko'makchi morfema vazifasida qo'llangan.

2. Adabiy tilda mavjud o'zak va so'z yasovchi affikslarning shevada adabiy tildan farqli so'z yasashi: [*gəp+ch'l*] so'zamol, so'zga usta; “y”lovchilarda: [*bo'y+lv*]; “j”lovchilarda: [*məy+lv*] suvga tushishdan oldin suvni bo'y bilan o'lchash; [*chərpəy+lv*] chorpahil – to'lacha odam; [*qo'rmə+ch// qo'g'yirmə+ch// qo'g'yirmə+ch*] mayda gurunchdan yoki bug'doydan qovurib tayyorlanadigan taom: qovurmoq+ch; [*qyirmə+ch*] qozonning tagida quyuyq ovqatning yopishib, o'ta pishib ketgan qismi, qozon qirish orqali tozalanadi: qirmoq+ch; [*l+pəv*] sekin harakatlanuvchi odam: ildam+emas kabi.

3. Komponentlari adabiy tilda bo'lish, bo'lmasligidan qat'iy nazar, adabiy tilda uchramaydigan shevagagina xos bo'lgan qo'shma so'z va birikmalar: [*dəly-gyl'*] tuzuk, yaxshi: [*dəly-gyl'gə qo'yurty*] ishni yaxshi qilibdi, bajaribdi, [*chevər kəynəgəmd' dəly-gyl'gə qo'yur tykəpty*] chevar ko'yulagimni yaxshi tikibdi); [*qo'lvntəyq*] paypoq yoki paytavasiz oyoq kiyim kiyish; [*qəlvəy-qəsvəy//qəlvəy-qəsvəy*] begona, hech kimga yoqmaydigan odam; faqat ayollarga nisbatan: [*tyllə-jog'ly*] gapga usta; [*qo'llə-yəhly*] erpchil, chaqqon; [*sərymtə*] hech nimasiz, hech vaqosiz, hech nimasi yo'q odam: [*sərymtə bo'p o'tyryppən*] hech nimasiz (hech vaqosiz) o'tiribman; [*əzvəlvəhən*] mo'l, juda ko'p; [*dysəmbə//dysələmbə*] ikki baravar ko'p//me'yordan oshiq (tojikcha: du bora): [*chərqyidə vsh dysəmbəydy//dysələmbəydy*]

evo'ldıq] lagandagi osh juda ko'p edi, eb bo'ldik kabi.

Janubi-g'arbiy Namangan shevalariga xos so'zlarning leksik tabiati, semantik strukturasi turli omillarning ta'siri tufayli yuzaga kelganki, bunday so'zlarning ayrimlari adabiy tilda yo'q bo'lib, ular shevalardagina uchraydi: *sh'ydə, chəkytmək, tʏpçyk, bəchk', ʏvʏz, həvən, chərqy, tʏpkə, jʏkʏm, əg'ı, chырəң, qo'g'ə//qəg'a, sət'l, so'p'lyryq, so'p'p'* kabi.

Mazkur hudud shevalarini kuzatish natijasida: bir sheva areali hamisha ham doimiy bir kenglikni tashkil etmay, u bir necha tuman, qishloq va ovullarni, qamrab olishi, aralash shevalarning paydo bo'lishi, ularning kengayishi hamda boshqa til va lahjalarga mansub aholining yangi maskanlarga ko'chib kelib o'rnashganda bir shevaning ikkinchi shevaga ta'sirida sintezlashish jarayoni sodir bo'lishi aniqlandi.

Janubi-g'arbiy Namangan shevalari arealida ham aralash shevalarda so'zlashuvchilar guruhini Mingbuloq tumanining Jomashov shaharchasi, Damko'l-Mazzang va Gulbog' qishloqlari aholisi tashkil etadi. Ular nutqida qarluq va qipchoq lahja unsurlari baravar qo'llanadi: [*meңa//məңə*] menga, [*ninəzən*] tuzk, bir chiroyli, [*bo'g'cha//bəxcha//tʏʏʏn*] narsa solingan ayollar tuguni, [*sar'msəq//səmsəq*] sarimsoqqiyoz kabi. Bunga qarluq sheva vakillarining JG'N hududida yangi ekin maydonlar barpo etib, erlarni o'zlashtirish maqsadida viloyatning turli joylaridan ko'chib kelishi va o'zaro aloqa-aralashuv munosabatlari ikki xil lahjada amalga oshganligi sabab bo'lgan.

Dialektal arealdagi fonetik-fonologik o'zgarishlar

Bugunga kelib, dialekt areallari orasidagi farqlar davr taqozosi – fan-texnika, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida asta-sekin yo'qolib bormoqda. Janubi-g'arbiy Namangan hududining ma'lum sheva areallarida leksik jihatdan tubdan farq qiluvchi birliklar faqat shu kichik sheva arealiga tegishli aholining o'z etnografiyasiga, urf-odatları, an'analari doirasida rivojlangani sababli saqlanib kelmoqda.

Mazkur dialektal areal bog'liq va konvergent izoglossalardan tashkil topgan. Bog'liq izoglossalar bir genetik umumiylikka ega bo'lganligi uchun qipchoq shevalarda o'z o'rniga ega holda rivojlandi, fonetik-fonologik o'zgarishlari bilan qo'llanmoqda. Ularda o'zaro tarixiy-genetik qarindoshlik til belgilari mavjud. Konvergent izoglossalar esa uzoq davrlar bir xududda yaqin aloqada bo'lish natijasida areal umumiylikning vujudga kelishi asosida hosil bo'lgan.

Bunday izoglossalar qarindosh bo'lmagan til oilalarining o'zaro munosabati orqali paydo bo'lgan. Sheva arealida bog'liq izoglossalar ko'p, konvergent izoglossalar esa ayrim kichik hududlardagina ko'zga tashlanadi.

Bog'liq izoglossalarning qiyosiy-genetik tahlilidan anglashiladiki, hududga avvalroq o'rnashgan aholi, asosan, qipchoq lahjasida so'zlashuvchilar bo'lib, qolganlari keyin ko'chib kelgan qarluq sheva vakillaridir.

Bir qator bog'liq izoglossalar hududda “j”lovchi va “y”lovchi qipchoq shevalari qoraqalpoq urug'larining ko'chib kelib, Sirdaryoning sero't chap qirg'og'iga o'rnashishi, o'zbek urug'lari bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy-maishiy aloqalari natijasida vujudga kelgan [Толстова 1959, 27].

Konvergent izoglossalarning tipologik tahlilidan ma'lum bo'ladi-ki, Markaziy Farg'ona cho'llarini o'zlashtirish uchun ishchidehqonlarning ommaviy safarbarligi, texnika ishlarini jonlantirish maqsadida rusiyzabon va forsiyzabon aholining ko'chirib kelinishi, yirik shaharlar va qishloqlardan qarluq lahjasi vakillarining oilaviy kelishlari, aholi vakillarining, ayniqsa, *mazzang* (forscha “mardi zan”. Mingbuloq tumani Damko'l-Mazzang qishlog'ida) elatini cho'l hududiga ko'chirilishi – tarqoq elatni bir joyga to'planishi gibridizatsiyani vujudga keltirdi. Bu jarayon janubi-g'arbiy Namangan shevalarida dialektologik o'ziga xosliklarni yuzaga kelish sabablaridan biridir.

Darhaqiqat, bildiriladigan har qanday fikrning ashyoviy qobig'ini akustik birliklar – tovushlar tashkil etadi. So'z tarkibidagi tovush qobig'i hududiy, hatto individual – shaxsiy farqlar bilan idrok etiladi. Bu hol ayrim hududiy tillarning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Janubi-g'arbiy Namangan dialektal areali o'ziga xos va umumo'zbek shevalari bilan o'xshash quyidagi fonetik xususiyatlar bilan belgilanadi:

a) kontrast juft unilarning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanishi, ya'ni ayrim turkiy tillarga xos bo'lgan tovushlarning asos va affiksial morfemalarda uyg'unlashishi: [paxta] paxta, [manti] manti, [baliq] baliq, [boringlar] boringlar, [yenglar] englar, [chiqinglar] chiqinglar, [boradigan kabi] boradigan kabi;

b) so'z boshida kelgan o'rta ko'tarilish unilarining diftonglashuvi: [ek'n] ekin, [eekk' qo'l] ikki qo'li, [ena] ona, [wət] omonim: o't, o'tmoq fe'lidan tashqari, [wətym], [egyb per//egvər] egib ber kabi. Taqqoslang: “y”lovchilarda: [ekk' qo'l], “j”lovchilarda: [ek' qo'l] tarzida kuzatiladi.

v) “j”lovchilarda ham “y”lovchilarda ham qisqa-cho‘ziq unlilar ma’no farqlamaydi. Bu qadimgi turkiy va eski o‘zbek tilining rudimenti – qoldig‘i bo‘lib, ayrim so‘zlardagina fonematik holda uchraydi. Hozirda undosh tovushlarning tushib qolishi sababli cho‘ziqlik mavjud: [shə:r] shahar, [bɔ:r] bahor, [sy:] suv, [kely:dʲ] kelgandi, [bɔru:dʲ// bɔruvdʲ] borgandi, [qɔ:] qol, [ke:] kel, [bo’sɔ:] bo‘lsa kabi;

g) “j”lovchilarda so‘z boshida y undoshining dj ga o‘tishi: [djoʻl] yo‘l, [djyr] yur, [djəhə] yanga, [kəzɣɨdʲ djɣm] ko‘zingni yum kabi;

d) “y”lovchilarda so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida y undoshining orttirilishi (paydo bo‘lishi): [yʻp] ip, [yʻlən] ilon, [rəyɣs] rais, [sɔrpɔy] sarpo, [ɔwrɔy] obro‘ kabi;

j) “j”lovchilarda so‘z boshida y va dj undoshining tushishi: [rʲhɨ] yiring, [rʲk] yirik, [rkan] jirkan, [rtaki] jirtaki//jizzaki kabi.

z) barcha qipchoq shevalariga xos bo‘lmagan tovush almashinuvini kuzatish mumkin: *y>g*: [tɣymə] tugma, [tɣysə] tugsə; *v>p*: [səv] sop (ketmonning sopi); *h>s*: [ukəxʲ] ukasi, [bɔɭhɨnʲ] bolasini; *h>sh*: [ɔhɨɔqɔ//əxɨəqə// onoxnoqo] ana shunaqa, [mɔhɨɔqɔ//məhɨəqə//mɔhɨɔqɔ] mana shunaqa, *h>q*: [qəhtə] qayoqda, [oʻhmʲnan//oʻhmɨn] o‘q bilan, *h>t*: [sɣyɣrdʲ oʻhlɔt] sigirni o‘tlat, [qɔhɨɔyɔptʲ] qatnayapti; o‘zlashmalarda: [mɔhɨnə] mashina, [mɔhɨnəxʲnʲ] mashinasini kabi.

Jarangsiz sirg‘aluvchi til oldi *s*, *sh*, *t* va *q* undoshlarining jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshi *h* ga almashishi boshqa o‘zbek shevalarda kuzatilmaydi. Bu hodisa faqat Mingbuloq tumani Gurtepa, O‘zgarish, Mulkobod, Uzuntepa, O‘rtaqishloq, Sho‘rsuv, Baland Gurtepa, Qo‘shqishloq, Beshbangi qishlog‘i va boshqa qishloqlar shevalari “y”lovchilarigagina xosligi juda xarakterlidir: [ukəxʲ, bɔɭhɨnʲ; ɔhɨɔqɔ//əxɨəqə//onoxnoqo, mɔhɨɔqɔ//məhɨəqə//mɔhɨɔqɔ, mɔhɨnə, mɔhɨnəxʲnʲ, qəhtə, oʻhmʲnan//oʻhmɨn, sɣyɣrdʲ oʻhlɔt, qɔhɨɔyɔptʲ] kabi. “H”lashish mazkur shevaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, boshqa shevalardan farqlab turadi;

Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari quyidagi o‘ziga xos morfologik xususiyatlarga ham ega:

a) hozirgi-kelasi zamon sifatdoshining -*vgʻıch*//*-ɔvgʻıch*//*-uvgʻch* variantlari o‘ta keng ko‘lamda, sheva arealining barcha hududida qo‘llanishi: [bɔrɔvgʻıch odam] boradigan odam, [kəɔvgʻchmən] ko‘radiganman, [yɣvɔvgʻıchmɨn] yuvadiganman, [bʲɔvgʻıchmɨn] bilib qo‘yadigan odam kabi;

b) o‘tgan zamon bo‘lishsiz shakli tuslanganda shaxs-son qo‘-

shimchalari bo'lishsizlikni ifodalovchi yo'q so'zidan keyin qo'shilib qo'llanishi: [bɔrg'ɔn yəhmɔn//bɔrg'ɔn yəhsɔn] borganim yo'q// borganing yo'q, [qɣɪg'ɔn yəhmɔn//qɣɪg'ɔn yəhsɔn] qilganim yo'q// qilganing yo'q, [kərgən yəhmɔn//kərgən yəhsɔn] ko'rganim yo'q, ko'rganing yo'q, [ɔg'ɔn yəhmɔn//ɔg'ɔn yəhsɔn] olganim yo'q, olganing yo'q kabi. Mazkur morfologik holat – qo'shimchalarning so'zlarga almashtirib qo'shish hududning “j”lovchi sheva vakillari nutqida ham, “y”lovchi sheva vakillari nutqida ham uchrashi kuzatiladi.

v) *-da* yuklamasining fonetik varianti *-tə* ning mavjudligi hamda uning qipchoq lahjasiga mansub “y”lovchilar guruhi shevasida, asosan, fe'llarning barcha zamon shakllaridan keyin keng va o'ta faol qo'llanishi: [əytt'mtə] aytdim, [əytɣvdəmtə//əytɣ:dəmtə] aytganman, [ətytəppəntə] aytyapman, [əytəməntə] aytmoqchiman kabi. Bu hodisa faqat Mingbuloq tumani Baland Gurtepa, Gurtepa, O'zgarish, O'rtaqishloq, Uzuntepa, Mulkobod, Do'msa, Qo'shqishloq qishloq shevalari “y”lovchilarigagina xosligi juda xarakterlidir. Bizningcha bu hodisa harakat jarayonlarini bajarilishiga bo'lgan munosabatning so'zlovchi tomonidan alohida, qat'iy ishonch va kuchli ta'kid orqali ifodasi hisoblanadi.

Xulosa

Janubi-g'arbiy Namangan shevalari lisoniy xususiyatlari o'zida xalqimizning va o'zi amalda qo'llanayotgan hudud ahlining tarixiy yo'li – ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatlarining shakllanishi, boyishi va rivojlanish jarayonlari haqida ishonchli va boy ma'lumotlar bera oladi. Xalqning jonli tili – shevalarini o'rganish, bir tilning o'ziga xos boshqa tillarda uchramaydigan jihatlari yoki ularni bir-biri bilan tutashtiruvchi nuqtalarini topish tilning ontologik tabiatini ochib berishga yordam beradi. Zotan, bugungi kunda janubi-g'arbiy Namangan dialektal arealda 439368 nafar aholi [Ma'lumotnoma 2018, № 01/2-01-08] o'zining turli rang va jilosiga ega bo'lgan o'zbek tilining jonli tili – shevalarida o'zaro aloqa qilmoqdalar.

Adabiyotlar

- Абдиев, М. 2017. “Худойберди Донёров”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 98-101. Тошкент.
- Абдуллаев, У. 2005. *Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари)*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Аскарлов, А. А. 1997. “Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности”. *ОН Узбекистан* 3: 46-55.
- Бердиалиев, А., Мадвалиев, А., Раҳмонқулов, А. 2017. “Таниқли шевашунос”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 101-102. Тошкент.

- Гумилев, Л. Н. 2007. *Қадимги турклар*. Тошкент: Фан.
- Донёров, Х. 1968. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари*. Тошкент: Фан.
- Эргашев, А. 2012. *Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи*. Филол. фан. номз. дис... автореф. Тошкент.
- Иногамов, Ш. 1955. *Этнический состав населения этнографическая Ферганской долины в границах Уз ССР*. Автореф. дис. ...канд. истор. наук. Ташкент.
- Ишаев, А. 1990. *Ўзбек диалектал лексикографияси*. Тошкент: Фан.
- Ишандадаев, Д. 1967. *Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз яшанинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир)*. Фил. фан. номз... дис. автореф. Тошкент.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960-1963. *Девону луғат-ит турк*. I том. Тошкент.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1967. *Девону луғат-ит турк*. Индекс – луғат. Тошкент: Фан.
- Марқаев, К. 2008. *Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи*. Фил. фан. номз. дис... автореф. Тошкент.
- Муҳаммаджонов, Қ. 1981. *Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари*. Тошкент: Фан.
- Наманган вилояти статистика бошқармасининг 2018 йил 2 мартдаги № 01/2-01-08-321-сонли маълумотномаси.
- Спришевский, В. И. 1963. *Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы)*. Автореф. дис... канд. истор. наук. Ташкент.
- Толстова, Л. 1959. *Каракалпаки Ферганской долины*. Нукус: Каракалпакское государственное издательство.
- Шониёзов, К. 1990. *Канғ давлати ва канғлилар*. Тошкент: Фан.
- Шониёзов, К. 2001. *Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни*. Тошкент: Шарқ.
- Шониёзов, К. 1962. “Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар”. *Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари*. 4: 481-491. Тошкент.

Ibrohim Darvishov

(Namangan, Uzbekistan)
ibmofifar@bk.ru

Dialects are a Historical Evidence of Interethnic Linguistics

(Based on the poems of South-west Namangan)

Abstract

The study of the language, initiated by Mahmud Kashgari in the East in the eleventh century, through the use of arealtypological and areal linguistic methods, is the most important issue today. The emergence of 19th-century linguistics in Western linguistics opened the way for new perception of new problems and concepts in dialectology. Historical-comparative and ethno linguistic research has been identified as one of the priorities in the integrated study of the language system, based on the theoretical foundations of dialects.

The article discusses the peculiarities of southwestern Naman-

gan dialects, their historical genesis, distribution and range of action. The linguistic traits in dialect and the processes of the occurrence of regularities are described in comparative-historical terms.

Key words: interethnic history, local language, ethnic group language facts, dialect, kipchak and karluk dialect, historical variation and narrowing of vocabulary, phonetic, lexical and grammatical content.

About the author: *Ibrohim U. Darvishov* – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Assistant Professor, Namangan State University.

For citation: Darvishov, I. U. 2019. “Dialects are a Historical Evidence of Interethnic Linguistics (Based on the poems of South-west Namangan)”. *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 51—65.

References

- Abdiev, M. 2017. “Hudjberdi Donjorov”. *Uzbek tili va adabijoti* 4: 98-101. Toshkent.
- Abdullaev, U. 2005. *Fargona vodijsida jetnoslararo zharajonlar (XIX-XX asr boshlari)*. Toshkent: Jangi asr avlodi.
- Askarov, A. A. 1997. “Nekotorye voprosy istorii stanovlenija uzbekskoj gosudarstvennosti”. *ON Uzbekistan*, 3: 46-55.
- Berdialiev, A., Madvaliev, A., Rahmonqulov, A. 2017. “Taniqli shevashunos”. *Uzbek tili va adabijoti* 5: 101-102. Toshkent.
- Gumilev, L. N. 2007. *Qadimgi turklar*. Toshkent: Fan.
- Donjorov, H. 1968. *Uzbek halqining shazhara va shevalari*. Toshkent: Fan.
- Jergashev, A. 2012. *Andizhon viloyati jetnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi*. Filol. fan. nomz. dis... avtoref. Toshkent.
- Inogamov, Sh. 1955. *Jetnicheskij sostav naselenija jetnograficheskaja Ferganskoj doliny v granicah Uz SSR*. Avtoref. dis... kand. istor. nauk. Tashkent.
- Ishaev, A. 1990. *Uzbek dialektal leksikografijasi*. Toshkent: Fan.
- Ishandadaev, D. 1967. *Namangan atrof tozhik va uzbek shevalarida suz jasashning ajrim hususiyatlari (tozhik va uzbek tillari uzaro ta'siri masalasiga doir)*. Fil. fanl. nomz... dis. avtoref. Toshkent.
- Koshgarij, Mahmud. 1960-1963. *Devonu lugat-it turk*. I tom. Toshkent.
- Koshgarij, Mahmud. 1967. *Devonu lugat-it turk*. Indeks – lugat. Toshkent: Fan.
- Marqae, K. 2008. *Uzbek tili jetnonimlarining lisonij tadqiqi*. Fil. fanl. nomz. dis... avtoref. Toshkent.
- Muhammadzhonov, Q. 1981. *Zhanubij Qozogistondagi uzbek shevalari*. Toshkent: Fan.
- Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2018 yil 2 martdagi № 01/2-01-08-321-sonli ma'lumotnomasi.
- Sprishevskij, V. I. 1963. *Chustskoe poselenie (k istorii Fergany v jepohu bronzy)*. Avtoref. dis... kand. istor. nauk. Tashkent.
- Tolstova, L. 1959. *Karakalpaki Ferganskoj doliny*. Nukus: Karakalpakskoe gosudarstvennoe izdatel'stvo.
- Shoniyozov, K. 1990. *Kang davlati va kanglilar*. Toshkent: Fan.
- Shoniyozov, K. 2001. *Uzbek halqining shakllanish zharajoni*. Toshkent: Sharq.
- Shoniyozov, K. 1962. “Qarluq qabilasi va uning tili haqida ajrim mulohazalar”. *Adabijotshunoslik va tilshunoslik masalalari*, 4: 481-491. Toshkent.